YOSH TAQIQOTCHILAR MINBARI

ТРИБУНА МОЛОДЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

YOUNG RESEARCHERS ROSTRUM

SAZOG‘ON-3 NEOLIT MAKONI SAZOG‘ON MADANIYATI YODGORLIKLARI TIZIMIDA (MADANIY-DAVRIY, TIPOLOGIK TAHLIL, TEXNOLOGIYA)

© 2023. Xolmatova Zarifa
O‘zRFA Milliy arxeologiya markazi

Kalit so‘zlar: Tosh asri, neolit, O‘rta Zarafshon, Sazog‘on madaniyati, Sazog‘on-3, “madaniy voha”, tosh industriyasi, tosh qurollari, madaniy-davriy, tipologik tahlil, xom ashyo, texnologiya.

Mazkur maqolada O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog‘ tizmasi shimoliy yon bag‘rida joylashgan Sazog‘on-3 makoni moddiy madaniyati yoritilishi nazarda tutilgan. Bunda aniqlangan moddiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan birga tosh qurollarining tipologik tahlili, yasalish texnikasi, xom ashyosi, ishlov berilishi usullari masalalariga e’tibor qaratilgan. Yodgorlik 2017-yildan buyon N. O‘. Xolmatov rahbarligidagi ilmiy guruh tomonidan tadqiq etilib kelinmoqda. Qazilma ishlari jarayonida 100 dan ortiq tosh artefaktlar, qiziqarli sopol idish parchalari qo‘lga kiritilgan. Garchi, bu materiallar asosida yodgorlik madaniy -davriy talqini borasida dastlabki mulohazalar bildirilgan bo‘lsada, biroq tosh industriyaning o‘ziga xos xususiyatlari, tosh qurollarning tipologik tahlili, ularning yasalish texnikasi, ishlov berilishi usullari, xom ashyosi to‘g‘risida to‘laqonli ma’lumotlar berilmagan. Shu bois, yangi materiallar asosidagi ushbu ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritilishi maqolaning maqsadi hisoblanadi. Tosh artefaktlar O‘rta Osiyo neolit yodgorliklari, xususan Sazog‘on madaniyati yodgorliklari materiallari kontekstida qiyosiy tahlil etildi. Tip varaqa ishlab chiqildi, tipologik tahlil asosida yodgorlik tosh industriyasining o‘ziga xos xususiyatlari asosida Sazog‘on-3 yodgorliginig madaniy-davriy masalasi haqidagi ma’lumotlar tizimlashtirildi. Shu asnoda, Sazog‘on-3 makoni materiallari asosida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirish mumkin: 1. Sazog‘on-3 yodgorligi kishilik tarixi tosh asri neolit davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli makon hisoblanadi. 2. Yodgorlik tosh industriyasining xarakteri, tosh qurollarining tipologik tahlili, tosh qurollarining yasalish texnikasi, ishlov berilishi usullari, xom ashyosi ma’lumotlari uni Sazog‘on madaniyatiga tegishli ekanligini ko‘rsatdi.

СТОЯНКА САЗАГАН 3 В СИСТЕМЕ ПАМЯТНИКОВ САЗАГАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ (КУЛЬТУРНО-ПЕРИОДИЧЕСКИЙ, ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, ТЕХНОЛОГИЯ)

© 2023. Холматова Зарифа Нормахаммадовна
Национальный археологический центр УзРФА

Ключевые слова: каменный век, неолит, Средний Зарафшан, сазаганская культура, Сазаган 3, «культурный оазис», каменная индустрия, каменные орудия труда, культурно-периодический, типологический анализ, сырье, технология.

В настоящей статье освящается материальная культура неолитической стоянки Сазаган 3, расположенной на северной стороне хребта Каратепа в Среднезарафшанском оазисе. Наряду с определением ее специфических черт, особое внимание уделяется вопросам типологического анализа, технологий изготовления, сырья, способов обработки каменных орудий. С 2017 г. памятник исследует Н. У. Холматов. В результате исследований обнаружено более 100 каменных артефактов, а также вызывающие интерес фрагменты керамики. На основе этих материалов была определена культурно-периодическая принадлежность памятника, однако не до конца установлены специфические особенности каменной индустрии, типологический анализ каменных орудий, технологии их изготовления, способы обработки сырья. Целью статьи является введение в научный оборот информации, основанной на новых материалах. Произведен сравнительный анализ каменных изделий с учетом материалов неолитических памятников Средней Азии, особенно памятников сазаганской культуры. На основе типологического анализа, с учетом специфики каменной индустрии, разработан тип-лист, систематизированы сведения о культурно-периодической характеристике памятника Сазаган 3. В связи с этим на основе материалов стоянки Сазаган 3 можно сделать следующие выводы: 1. Памятник Сазаган 3 – стоянка, материальная

культура которой принадлежит неолитическим сообществам каменного века. 2. Характер монументальной каменной индустрии, типологический анализ каменных орудий, их техника изготовления, способы обработки, данные о сырье показали принадлежность памятника к сазаганской культуре.

Kirish. O‘rta Zarafshon vohasi Turkiston va Zarafshon tog‘ tizmalari oralig‘ida submeridian yo‘nalishida cho‘zilgan ko‘rinishga ega. Voha janub tomondan Zarafshon tog‘ tizmasi g‘arbiy qismi bilan chegaralangan (Chaqilqalin, Qoratepa, Ziyadin-Zirabuloq).


Qoratepa tog‘ massivi – Zarafshon tog‘ tizmasining O‘rta Zarafshon vohasiga to‘g‘ri kelgan tarkibiy qismi hisoblanib, uzunligi taxminan 50 kilometr, kengligi 30–35 kilometrdan iborat tog‘, tog‘ oldi mintaqasi hisoblanadi. Uning baland cho‘qqisi – Kimqo‘ton bo‘lib (dengiz sathidan balandligi 2188 metr), uning janubiy yon bag‘ri Qashqadaryo vohasiga nisbatan yotiq, shimoliy yon bag‘ri esa Zarafshon vohasiga nisbatan tikroq holatda kelib tutashgan. Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ri o‘z suvini Zarafshon vohasi tomon oqizuvchi yon qayirlar, chuqur yon daralarga ega bo‘lgan yirik soylar (Ohalik, Miranqul, Tepaqul, Egriqulcha, Sazog‘on, Oqsoy kabi) bilan kesilgan. Kishilik tarixi tosh davriga oid yodgorliklar joylashuvi va tadqiqotlari shu soylarning yon terrasalari sathlari va ular yon daralaridagi g‘or va ungurlar bilan bog‘liq (1-rasm).

O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ridagi bu soylar bilan bog‘liq bulgan tosh asri yodgorliklarini o‘rganish ishlari Samarqand davlat universiteti arxeologiya ekspeditsiyasi tadqiqotlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu tadqiqotlar o‘tgan asrning 60-yillari 2-yarmidan e’tiboran Samarqand davlat universiteti arxeologlari tomonidan Sazog‘onsoy yon qayirlarida Sazog‘on 1,2 makonlarining kashf etilishi va ular qazilmalarida qiziqarli tosh qurollari, sopol buyum parchalari to‘plami qo‘lga kiritilishi bilan boshlangan (Lev 1969: 3–68). Ushbu neolit yodgorliklarining keyingi yillardagi qazilma ishlari bevosita M. D. Djurakulov, N.Xolmatovlar tomonidan amalga oshirilgan va shu jarayondagi arxeologik qidiruvlar natijasida 30 dan ortiq yangi yodgorliklar ham arxeologik xaritaga olingan. Mazkur yodgorliklar jumlasidan bo‘lgan Sazog‘on 2, Jangal 1, Tepaqul 3–5, Lolab, Olmabuloq, Qora Kamar, Ochilg‘or makonlarida bevosita qazilma ishlari olib borilib, katta hajmdagi mezolit, neolit davri jamoalarining moddiy madaniyatiga tegishli bo‘lgan materiallar qo‘lga kiritilishiga erishilgan. Shu materiallar asosida O‘rta Osiyo miqyosidagi neolit davri madaniyatlari (Joyitun, Kaltaminor, Hisor, Markaziy Farg‘ona) tizimida yangi, mustaqil Sazog‘on madaniyati ajratilib, ilmiy muamalaga kiritilgan Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan mazkur mintaqada kishilik tarixi tosh asri taraqqiyoti bosqichlari bo‘lgan paleolit (Olmabuloq), mezolit (Zamichatosh, Ohalik,Sazog‘on 1, Qorakamar, Ochilg‘or makonining pastki madaniy qatlami) neolit (Sazog‘on neolit madaniyatining yodgorliklari) davrlari jamoalari moddiy madaniyatiga tegishi bo‘lgan yodgorliklarning mavjudligidan kelib chiqib, bu muzofot ibtidoiy odamlar uzluksiz yashagan va mahalliy negizda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan madaniyatlar yaratilgan “madaniy voha” bo‘lgani alohida ta‘kidlangan (Djurakulov, Xolmatov 1991: 3–122; Xolmatov 2020: 3–383).

Materiallar. Sazog‘on-3 makoni tadqiqotining dastlabki natijalariga ko‘ra, yodgorlik Sazog‘on madaniyati jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli ekanligi aniqlangan (Xolmatov, Qurbonboyev, Karimov: 2023:18–22).

Sazog‘on-3 makoni. Sazog‘on-3 neolit makoni Sazog‘on 2 makonidan Sazog‘onsoy bo‘ylab chamasi 500–550 metr yuqorida soyning chap yon qayirida joylashgan. Qayirning maydon sathi taxminan 80 x 130 metr o‘lchamni tashkil etadi va soy tomon birmuncha qiyalik ko‘rinishli bo‘lib, uning balandligi dengiz sathidan 963 metrni tashkil etadi.

Sazog‘on-3 makonida hammasi bo‘lib 105 metr kvadratga yaqin maydon sathida madaniy qatlam tadqiq etilib, 1000 dan ortiq muhim arxeologik ashyolar qo‘lga kiritilgan. Arxeologik ashyolar tosh buyumlar, sopol buyum parchalari, hayvon, parranda suyak qoldiqlari, chig‘anoq kabi topilmalardan iborat. Shundan 174 tasini bevosita tosh buyumlari tashkil etadi. Tosh buyumlar chaqmoqtosh, chaqmoqtoshli-slanes, xalsedon, kvars kabi tog‘ jinslaridan tayyorlangan.




1-rasm Sazogon madaniyati yodgorliklarining zhoylashuv xaritasi
Рис. 1. Картографирование памятников Сазаганской культуры
Figure 1. Mapping of sites of the Sazagan culture

Sazog‘on-3 makoni tadqiqoti jarayonida qo‘lga kiritilgan tosh buyumlarning tipologik tahlili ularni quyidagi guruhlarga ajratish imkonini berdi (2–4 rasmlar): 1. Ishlov berilmagan otщeplar, ishlab chiqarish chiqindilari (30 dona); 2. Ishlov berilmagan paraqalar (10 dona), shulardan mikropraqalar (2 dona): 3. Tosh o‘zaklari (5 dona) va toshni yo‘nish bilan bog‘liq bo‘lgan tosh qurollar (19 dona); 4. Otщepdan yasalgan qurollar (72 dona): 5. Paraqadan yasalgan qurollar (38 dona), jumladan mikroparaqa qurollar (13 dona): 6. Boshqa tipdagi qurollar: qayroqtosh qurollari (20 dona), yorg‘uchoqlar (3 dona).

Toshni yo‘nish bilan bog‘liq bo‘lgan predmetlar (19 dona). Bular tosh o‘zaklarini tayyorlash maqsadida toshni dastlabki yo‘nishlardan hosil bo‘lgan tosh buyumlari hisoblanadi.


Tosh o‘zaklari. Sazog‘on makoni 3 tadqiqoti jarayonida 5 dona tosh o‘zaklari qo‘lga kiritilgan. Ularning deyarli barchasi pichoqsimon paraqalar ajratib olishga mo‘ljallangan tosh o‘zaklari hisoblanadi. Tosh uchirindilar ajratib olinganlari sanoqli, kam. Tosh o‘zaklarini tipologik jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin: 1. Prizmasimon tosh o‘zaklari; 2. Konussimon ko‘rinishdagi tosh o‘zaklari; 3.Mikro tosh o‘zaklari.



2-rasm. Sazogon-3 maqoni. Paraqadan qurilgan kurollar
Рис. 2. Стоянка Сазаган 3. Орудия из пластин
Figure 2. Sazagan 3. Plate tools

Prizmasimon tosh o‘zaklari – 3 dona. Bu tosh o‘zaklari pichoqsimon paraqalar ajratib olishga mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagi tiplarga bo‘linadi: 1. Bir taraflama ishlov berilgan prizmasimon tosh o‘zaklari. Bular tosh o‘zaklari to‘plamida 2 donani tashkil etadi. 2. Gir aylanasiga ishlov berilgan prizmasimon tosh o‘zaklari (1 dona). Ular bir zarb ishlov maydoniga ega bo‘lgan, paraqa va mikroparaqa uchirib olishga mo‘ljallangan tosh o‘zaklari hisoblanadi. Tosh o‘zaklarining zarb maydoni sathi ancha qiyalikga ega. Ikkalasi to‘q qoramtir rangli chaqmoqtoshli-slanesdan, 1 tasi oqimtir jigarrangli slanesdan yasalgan.

Konussimon tosh o‘zaklari – 1 dona. Mazkur tosh o‘zagi paraqa, mikroparaqalar uchirib olishga mo‘ljallangan. Uning zarb ish maydoni sathi biroz qiyalikka ega. Gir aylanasi bo‘ylab mikroparaqalar uchirib olinganligi izlari saqlanib qolgan, to‘q qoramtir rangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan.



3-rasm. Sazogon-3 makoni.Uchirindidan yasagan kurollar
Рис. 3. Стоянка Сазаган 3. Орудия из отщепов
Figure 3. Sazagan 3. Flake tools

Mikro tosh o‘zaklari – 1 dona. Uning bir tomonidan mikroparaqalar uchirib olingan. Kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan.

Ishlov berilmagan отщеplar, ishlab chiqarish chiqindilari – 30 dona. Bu tipga kiruvchi tosh buyumlarini ko‘pchiligini ishlab chiqarish chiqindilar tashkil etadi. Tosh qurollari yasash uchun mo‘ljallab tayyorlanganlari kamroq.Ular turli o‘lchamga ega.

Ishlov berilmagan paraqalar va mikroparaqalar (10 dona: shundan 1 donasi mikroparaqalar). Bu tipdagi tosh buyumlarning ko‘pchiligini ishlab chiqarish chiqindilar, nisbatan kamrog‘ini qurol yasashga mo‘ljallab tayyorlangan buyumlar tashkil etadi.

Sazog‘on-3 yodgorligi tosh buyumlarining ichida 110 dona (tosh o‘zaklari, toshni yo‘nish bilan bog‘liq bo‘lgan tosh buyumlardan tashqari) tosh qurollari mavjud. Ular tipologik jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘linadi:


Ishlov berilgan paraqa qurollari – 38 dona, (umumiy ishlov berilgan tosh qurollari soniga nisbatan) (2-rasm). Mazkur qurollar shakli va ishlov berilishi usullari bilan quyidagi tiplarga bo‘linadi: 1. Yelka tomoniga ishlov berilgan paraqalar (21 dona); a) bir yon qirrasiga ishlov berilgan paraqalar – 15 dona ;v) ikki yon qirrasiga ishlov berilgan paraqalar – 6 dona. Paraqalar yon qirralariga asosan tik yoki paraqaning yelka tomonga qarab yassi tarzda ishlov berilgan. Paraqalarning qirralariga uzunasiga uzluksiz yoki qisman uzulish bilan hamda kam holatlarda tishsimon, yengil chuqurchasimon ko‘rinishda ishlov berilgan. Mazkur paraqa qurollar asosan kulrang, to‘q yashil rangli chaqmoqtoshli-slanesdan, kamroq miqdorda chaqmoqtosh, xalsedon, kvars, slaneslardan yasalgan. Ushbu tip qurollari ichida yelka qismi bir yon qirrasiga ishlov

berilgan mikroparaqalar (9 dona), ikkala yon qirrasiga ishlov berilgan mikroparaqalar (3 dona) ham mavjud. Mikroparaqalar yon qirralariga juda yupqa, qisman uzilish bilan ishlov berilgan. 2. Astar tomoniga ishlov berilgan paraqalar (5 dona). Ularning barchasiga bir yon tomoniga ishlov berilgan. Mazkur paraqalarga 2 xil usulda ishlov berilganligi kuzatiladi: 1. Yon qirralari bo‘ylab tumtoqlangan holda ishlov berilgan; 2. Yon qirralaridan astar qismiga chuqur kirib borgan holda ishlov berilgan. Ba’zan yon qirralarida qarama-qarshi tarzda kertilib ishlov berilgan holatlar ham kuzatiladi. Yodgorlikdan bu tipdagi qurollarning topilishi juda ahamiyatli bo‘lib, o‘z yasalish xom ashyosi, shakli, ishlov berilishi usullariga ko‘ra Quyi Zarafshon, Qizilqum hududi Kaltaminor yodgorliklari paraqa qurollariga juda o‘xshash (Gulyamov, Islamov, Askarov 1966: 3–119). Bu so‘zsiz, Kaltaminor va Sazag‘on jamoalarining o‘zaro madaniy aloqalarining mahsulidir. Mazkur tipdagi mikroparaqalarga asosan bir yon qirrasiga ishlov berilgan. Paraqa qurollar ichida 4 dona butun holatda saqlangan paraqa qurollari ham bor. Paraqa qurollariningko‘pchiligi jigarangli, to‘q jigarrangli, to‘q yashil chaqmoqtoshdan va kulrang rangli, oqimtir sariq rangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan. Yon tomonlari bo‘yicha qarama-qarshi holatda ishlov berilgan paraqalar – 2 dona va shulardan 4 – donasi mikroparaqalar hisoblanadi. Yon qirralari bo‘yicha ishlovlar uzunasiga berilgan, lekin ular yoppasiga bo‘lmasdan, uzuq – yuluq holatdadir.

Paraqa qurollar kolleksiyasida yon tomonidan yelka qism hosil qilgan holda to‘mtoqlanib bir qirrasi bo‘yicha ishlov berilgan paraqalar ham uchraydi. Lekin, ular aniq shaklga ega emas. Ikkinchi qirrasi paraqaning yelka tomonidan yassi holda pasayib kelib, o‘tkir kirra hosil qilgan bo‘lishi mumkin.

Paraqa qurollari to‘plamida ustki kesim qismi bo‘yicha ishlov berilgan paraqalar ham uchraydi. Bular 2 – dona bo‘lib, qurolga ustki kesimi to‘g‘ri holatda ishlov berilgan. Bu turdagi paraqa qurollari O‘rta Osiyo pasttekislik mintaqasi Kaltaminor jamoalari yodgorliklari tosh industriyasiga xos qurollar hisoblanadidir.

Sazog‘on-3 yodgorligi paraqa qurollari to‘plamida geometrik shakldagi mikrolitlar uchratilmadi. Yon qirralari bo‘yicha ishlov berilgan chuqurchalarga ega bo‘lgan paraqalar – 3 dona. Bu paraqa qurollarda bir qirrasi bo‘yicha bitta yoki ikki qirrasida bittadan ishlov berilgan o‘ydim joyi bor,.. Paraqadan yasalgan qirg‘ichlari – 3 dona. Paraqaning ust kesim qismida yoysimon ko‘rinishda ish maydoni hosil qilinib qirg‘ich qurollari yasalgan. Ular jigarrang va to‘q kulrang chaqmoqtoshli-slanesdan tayyorlangan. Paraqa qurollarning ichida qovurg‘asimon paraqalar – 2 donani tashkil etadi. A. V. Vinogradov ko‘rsatishicha, mazkur paraqalar tosh o‘zakning zarb maydoni gir atrof qirrasini to‘g‘irlayotgan paytda uchib ketadigan paraqalardir. Shu bois qovurg‘asimon paraqalarni



4-rasm. Sazogon-3 maqoni. Qayroqtosh qurollar
Рис. 4. Стоянка Сазаган 3. Галечные орудия
Figure 4. Sazagan 3. Pebble tools




5-razm. Sazogon-3 makoni. Qayroqtosh qurollar
Рис. 5. Стоянка Сазаган 3. Галечные орудия
Figure 5. Sazagan 3. Pebble tools

tosh qurollarni yasash bilan bog‘liq tosh buyumlar sirasiga ham kirgizish mumkin (2-rasm). Arxaik ko‘rinishdagi enli paraqalar – 2 dona. Bu qurollar yon qirralari bo‘yicha to‘qmoqlangan usulda ishlov berilgan. To‘q jigarrangli, kulrangli chaqmoqtoshli slaneslardan yasalgan.

Sazog‘on-3 makoni tosh qurolllarining ko‘pchiligini uchirindidan yasalgan qurollar tashkil etadi (72 dona). Ularning aksariyatiga yon qirralari bo‘yicha turlicha usulda ishlov berilib, ish maydoni hosil qilingan (3-rasm). Tik kertish, yotig‘iga ezish, ba’zi holatda qarama-qarshi yo‘nalishli, hatto tishsimon ko‘rinishli usulda ishlov berilgan. Ularni ish maydonlari xarakteriga qarab tipologik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin: tekis, biroz kemtikli ish maydoniga ega bo‘lgan uchirindi qurollari; yon qirralarida o‘yiq qismi, chuqurchalariga ega bo‘lgan uchirindi qurollar; yon qirralarining turli joylariga bir-birlaridan ajratilgan hamda qarama-qarshi holda ishlov berilgan uchirindi qurollari; yon qirralari bo‘yicha ishlov berilgan uchirindi qurollari. Mazkur uchirindi qurollarning aksariyati kulrang, ya’ni to‘q va ochiq kulrang hamda yashil rangli chaqmoqtoshli-slaneslardan yasalgan. Jigar rangli chaqmoqtosh, slanes, xalsedon, kvarsit, kvarslardan esa kam miqdorda yasalgan.

Uchirindilardan yasalgan qurollar ichida qirg‘ich qurollari ham uchraydi – 4 dona (3-rasm). Texnik-tipologik jihatdan qirg‘ich qurollarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: 1.Tik ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ich qurollari (vysokiye skrebki). Ular nisbatan kattaroq o‘lchamli 2,5 smdan – 3,5 smgacha, vazmin tosh bo‘lagi yoki uchirindidan yasalgan. Bu qirg‘ichlarish maydoni yon qirrasi tik holatda qurolning astar qismiga nisbatan vertikal ko‘rinishda yoysimon shaklda uzun, ensiz holda iz qoldiruvchi kertuv usulida ishlov berilgan. Shu shakli bilan ko‘pincha o‘zaksimon qirg‘ichni ham eslatadi (so‘nggi paleolit, mezolit davri yodgorliklari tosh industriyasiga xos).Ular kulrang, jigarrangli chaqmoqtoshli-slanesdan, jigarrangli chaqmoqtoshdan yasalgan; 2) past bo‘yli tik ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ichlar. Ish maydoni kertuv usulida astar qismiga nisbatan vertikal holatda, yoysimon, nisbatan qiyshiqroq, ba’zan juda kam holatda to‘g‘ri shaklda hosil qilingan. Ularning o‘lchamlari 2,5–3 santimetr atrofida. Mazkur qurollar aksariyati kulrang va yashil rangli chaqmoqtoshli-slanesdan, kam miqdorda to‘q yoki och sariq jigarrangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan; 3) Yassi yoki taypoq ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ich qurollar. Ish maydonlari ko‘pincha yoysimon bo‘lib, ularga kertuv yoki ezish usulida ishlov berilgan. Ularning o‘lchami 2,5–3,0 santimetrlar atrofida. Qirg‘ich qurollari asosan chaqmoqtoshli-slanes,slanes, kvarsit, kam miqdorda chaqmoqtosh, xalsedondan yasalgan.

Ponasimon qurollar – 1 dona.Uncha katta bo‘lmagan o‘lchamli uchirindidan yasalgan . Uchirindi kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan uchirib olingan. Ma’lumki, ponasimon qurollar shu qurol uchun mo‘ljallab uchirib olingan, maxsus uch qismi ikki tomonidan chaqmoqlanib yupqalashtirilgan uchirindidan, tasodifiy tarzda tosh o‘zagidan bo‘laklanib tushgan uchirindidan yoki uch qismi yupqalashgan va tekis qirraga ega bo‘lgan tosh o‘zaklari bo‘lagidan tayyorlangan. Ponasimon qurollarning ish maydoni nisbatan qalinroq, mustahkam bo‘lishi lozim, sababi ular turmushda kesgich, silliqlash quroli sifatida ishlatilgan. Tekis qirrali ish maydoni qurolning



6-rasm. Sazogon madaniyati yodgorliklari tosh sanoatida oldingi tarixiy davrlar (sunggi paleolit, mezolit) va tosh kurollari evolyutsiyasining kuzatilishi
Рис. 6. Преемственность традиций и эвалюция (верхний палеолит, мезолит) каменной индустрии на стоянках сазаганской культуры
Figure 6. Continuity of traditions and evolution (Upper Paleolithic, Mesolithic) of the stone industry at the sites of the Sazagan culture

yelka qismi tomon chuqurroq kirib borishni ta’minlovchi kertuv usulida ishlov berish yo‘li bilan hosil qilingan. Ish maydoniga ikki old va astar tomonidan ishlov berilishi bu qurol uchun xos xususiyatdir. Ish maydoni ba’zan qarama-qarshi yo‘nilgan kertuv usulida ishlov berilishi bilan ish tig‘i o‘tkirlanib turgan. Mutaxassislar fikricha,ish maydoni dastlab uchirindining qulay qirrasi bo‘yicha old va astar tomonlaridan chaqmoqlanib yupqalashtirilib tayyorlanadi va uning uch tekis qismi yana o‘tkirlashtiriladi. Uning o‘lchamlari uzunasiga 3–3,5 santimetr, eni 1,5–2,0 santimetrni tashkil etgan. Ponasimon qurol kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan tayyorlangan.

Keskich qurollar – 2 dona. Mazkur tipdagi qurollar tekis yon qirraga ega bo‘lgan uchirindidan yasalgan. Ish maydoniga mayda izli ezish yo‘li orqali ishlov berilgan. Ular kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan tayyorlangan.

Shuningdek, Sazog‘on–3 makoni tadqiqoti jarayonida boshqa guruhdagi tosh qurollari ham qo‘lga kiritilgan:

Qayroqtosh qurollari – 20 dona (4, 5-rasmlar). Asl, butun holatdagi qayroqtosh qurollari nisbatan kam sonli, ko‘pchilik miqdorni esa qayroqtosh bo‘laklari tashkil etadi. (18 dona). Butun qayroqtosh qurollari suyri yoki to‘g‘ri burchakli shaklga ega. Ish maydonlari nisbatan qo‘pol kertuv usulida tekislanib, o‘tkirlangan,lekin turmushda ko‘p ishlatilganidan ish qirralarida yemirilganligi belgisi ko‘zga tashlanadi. Qayroqtoshlar ustki po‘stlog‘i ko‘proq saqlanib qolgan. Aksariyati to‘q kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan.

Yorg‘uchoqlar – 3 dona. Asosan yupqa o‘lchamli slanesli tosh plitalardan yasalgan. Ish maydon tekis va o‘rta qismida chuqurlashgan ko‘rinishga ega. Bu chuqurlashgan ish maydoni donni ezish jarayonida hosil bo‘lgan.

Jadval 1. Sazog‘on 3 neolit yodgorligi tosh buyumlari tipologiyasi (tip list)

Tosh buyumlar tiplari	
Ishlov berilmagan uchirindilar	30
Ishlov berilmagan paraqalar:	10
Shu jumladan mikroparaqalar	2
Tosh o‘zaklari:	5
Prizmasimon	3
Konussimon	1
Mikrotosh o‘zagi	1
Toshni yo‘nish bilan bog‘liq bo‘lgan tosh buyumlari	19
Jami	**64**
Payraqalardan yasalgan qurollar:	38
Yelka qismining ikkala yon tomoni bo‘yicha ishlov berilgan paraqalar	6
Shu jumladan, mikroparaqalar	3
Yelka qismining bir yon tomoni bo‘yicha ishlov berilgan paraqalar	15
Shu jumladan, mikroparaqalar	9
Astar qismining ikkala yon tomoni bo‘yicha ishlov berilgan paraqalar	-
Shu jumladan, mikroparaqalar	-
Astar qismining bir yon tomoni bo‘yicha ishlov berilgan paraqalar	5
Shu jumladan, mikroparaqalar	-
Yon tomonlari bo‘yicha qarama-qarshi holatda ishlov berilgan paraqalar	1
Yon tomonlari to‘balanib o‘tmaslangan holatda ishlov berilgan paraqalar	-
Uch kesim qismi bo‘yicha ishlov berilgan paraqalar:	1
Qiyshiq holatda	-
To‘g‘ri holatda	1
Geometrik shakldagi qurollar: trapetsiya	-
Yon qirralari bo‘yicha ishlov berilgan chuqurchalariga ega bo‘lgan paraqalar	3
Shu jumladan, mikroparaqalar	1
Paraqaning ustki kesim qismida ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ichlar	**3**
Teshgich qurollar	-
Qovurg‘asimon paraqalar	2
Arxaik ko‘rinishga ega bo‘lgan enli paraqalar	**2**
Jami	**38**
Uchirindilardan yasalgan qurollar:	**72**
Turli ish maydonigaega bo‘lgan qirg‘ichlar:	5
Jumladan, tik ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ichlar; disksimon qirg‘ichlar,tirnoqsimon mikroqirg‘ichlar	-
Turli yon tomonlari bo‘yicha ish maydonlariga ega bo‘lgan uchirindilar	18
Ponasimon qurollar	1
Randasimon qurollar	-
Ikki yon tomoni bo‘yicha ishlov berilgan o‘q- yoy uchlari	-
Teshkich qurollar	-
Keskich qurollar	2
Qayroqtosh qurollari bo‘laklari	20
Plitkasimon qirg‘ich qurollari	-
Yorg‘uchoqlar	3
Ikki yuz qismi silliqlanib ish maydoni hosil qilingan bolta quroli	-
Mikro chopper quroli	-
Yirik hajmli ushatkich quroli, bo‘laklari	-
Kvars	23
Jami	**72**

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida Sazog‘on-3 makoni tosh buyumlari tipologik tahlili natijalarini quyidagicha keltirish mumkin: tosh buyumlarning 6 ta guruhi aniqlandi. Jumladan, toshni yo‘nish bilan bog‘liq bo‘lgan tosh buyumlar xususan, tosh o‘zaklari 3 ta tipga; paraqadan

yasalgan qurollar guruhi 9 ta tipga; uchirindidan yasalgan qurollar guruhi 5 ta tipga; boshqa guruh artefaktlari esa 3 ta tipga ajratildi.

Demak, tosh qurollarining tipologik tahlili natijalari Sazog‘on-3 makonining tosh industriyasi uchirindili-paraqali industriya ekanligini ko‘rsatib, industriyaning paraqali qismida mikroparaqalar borliligi hamda qayroqtoshli elementlar kuzatilishi faktini berdi (1-jadval).

Natijalar. Jadvaldagi ma’lumotlar Sazog‘on-3 makoni tosh industriyasi asosiy qurollari qolgan Sazog‘on yodgorliklari tosh industriyasi qurollari bilan tipologik jihatdan o‘xshashligini ko‘rsatdi. Yodgorlik tosh industriyasi tosh buyumlari 6 ta guruhi bo‘yicha-tosh o‘zaklari va toshni yo‘nish bilan bog‘liq bo‘lgan predmetlar, ishlov berilmagan uchirindilar, ishlov berilmagan paraqalar salmog‘i kamaygan, uchirindilardan yasalgan qurollarning salmog‘i oshganligini kuzatish imkonini berdi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, uchirindilardan yasalgan qurollar salmog‘i (ishlov berilgan qurollar soniga nisbatan) bo‘yicha Sazog‘on 2 makoniga yaqin bo‘lib chiqdi. Paraqa qurollari esa, shu nisbatda Jangal 1, Tepaqul 3 makonlariga nisbatan salmog‘i kam bo‘lib, Sazog‘on 2 makoniga yaqinlashdi. Paraqa buyumlar ichida ishlov berilmagan mikroparaqalar salmog‘i kamaygan. Payraqadan yasalgan qirg‘ichlar, qayroqtoshlar, keskich qurollar, tik ish maydoniga ega bo‘lgan uchirindilardan yasalgan qirg‘ichlar, ponasimon qurollar mavjudligi va ularga qo‘llanilgan texnologik uslublar makon tosh industriyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan birini tashkil etib, makon tosh industriyasining O‘rta Osiyo tog‘ mintaqasi mezolit-neolit jamoalari moddiy madaniyati tizimiga kirishidan dalolat beradi. Makondan 3 dona yorg‘uchoq toshlari, donni ezishda qo‘llanilgan o‘rtacha o‘lchamdagi tosh buyumlarning uchratilgani Qoratepa mintaqasida yashagan neolit jamoalarining xo‘jalik mashg‘ulotlari to‘g‘risida xulosalarga kelish imkonini beradi.

Munozara. Sazog‘on-3 makoni tosh industriyasida prizmasimon ko‘rinishli tosh o‘zaklari, mikrotosh o‘zaklari, yelka va astar qismining bir yoki ikki yon qirrasi bo‘yicha ishlov berilgan paraqa qurollari, yon qirrasi to‘mtoqlanib o‘tmaslangan holatda ishlov berilgan paraqalar, yon qirralarida ishlov berilgan chuqurchalarga ega bo‘lgan paraqa qurollari, ponasimon qurollar, ustki kesim qismida yoysimon ko‘rinishli ish maydoniga ega bo‘lgan uchirmadan, paraqadan yasalgan qirg‘ich qurollari, qovurg‘asimon paraqalar, arxaik ko‘rinishga ega bo‘lgan enli payraqa qurollarining uchratilishi bevosita tosh qurollarining tarixiy davrlar ketma-ketligida oldingi tarixiy davrlar tosh qurollarining evolyutsion tarzda, an’anaviy, tadrijiy davom etib kelganligini bildiradi (6-rasm). Bu tosh qurollari o‘z shakli, yasalishi texnikasi, ishlov berilishi usullari bo‘yicha O‘rta Osiyo tog‘ mintaqasi mezolit va hatto so‘nggi paleolit jamoalariga tegishli yodgorliklar tosh qurollariga o‘xshash. Buni tik ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ich qurollar (vysokiye skrebki), ponasimon qurollar to‘g‘risida ilmiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan asoslash mumkin. Xususan, A. P. Okladnikov ma’lumoticha, Turkmaniston hududi Krasnovodsk yaqinidagi yuqori paleolit chaqmoqtosh ustaxonasi, Jabal g‘or makoni 5a, 7, 8 – madaniy qatlamlarida bu turdagi qirg‘ich qurollar uchraydi (Okladnikov 1953: 52). G. Ye. Markov ham o‘z tadqiqotlarida Dam-Dam-Chashma 1 makoni 3,5 madaniy qatlamlari, Dam-Dam-Chashma 2 makoni 4 – (yuqori) madaniy qatlamida ushbu turdagi qurollar uchrashi to‘g‘risida ma’lumot keltiradi (Markov 1966: 148, 184, 190, 195). N.O‘.Xolmatovlar tadqiqotida Quyi Zarafshon vohasi Chorbaqti mezolit makonlari moddiy madaniyatida bu turdagi qirg‘ichlar uchrashi haqida ma’lumotlar mavjud (Xolmatov 2007: 27–44). M. Djuraqulov ma’lumoticha, Samarqand yuqori paleolit makoni tosh qurollari to‘plamida ushbu turdagi qirg‘ichlar salmoqli tarzda uchraydi (Djurakulov 1987: 30, 31, 76, 85, 122). O‘. Islomov Obishir madaniyati tosh industriyasida uchirindidan yasalgan tik ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ichlarni alohida tip sifatida ajragan (Islamov 1980: 57, 88, 89, 104, 119.). V. A. Ranov o‘z tadqiqotida Tojikiston hududi tosh davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli bo‘lgan Oshxona, Shugnov makoni 1-madaniy gorizonti, Tutqovul makoni 3-madaniy gorizontida mazkur tipdagi qirg‘ichlar mavjudligi borasida ma’lumot beradi (Ranov 1961: 23, 29; 1973: 54, 58). Bu ma’lumotlar soha mutaxassislarining ushbu turdagi qirg‘ichlar neolit davri jamoalariga nisbatan mezolit davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli va O‘rta Osiyo

pasttekislik mintaqasi mezolit jamoalari moddiy madaniyatiga nisbatan tog‘ mintaqasi jamoalari moddiy madaniyaga oid ekanligi borasidagi yondoshuvlarini tasdiqlaydi (Xolmatov 2020: 93–95).

Sazog‘on-3 makonidan topilgan paraqa va mikroparaqa qurollarining O‘zbekiston miqyosida neolit davri yodgorliklari tosh industriyasida tutgan o‘rni masala¬siga e’tibor qaratsak qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Sazog‘on-3 makoni mazkur qurollari o‘z shakli va ishlov berilishi usullari, yasalish xom ashyosi bo‘yicha Sazog‘on 1, 2, Jangal 1, Lolab, Ochilg‘or makoni yuqori madaniy qatlami payraqa qurollariga aynan o‘xshash. Shuningdek, yodgorlikning astar tomonining bir yoki ikki qirrasi bo‘yicha ishlov berilgan paraqa qurollari, yon tomonlari yelka qismidan to‘mtoqlangan holda ishlov berilgan, uch kesim qismi bo‘yicha to‘g‘ri yoki qiyshiq holatda ishlov berilgan paraqa qurollari, paraqadan yasalgan yoysimon ko‘rinishdagi ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ich qurollari, Quyi Zarafshon vohasi (Uchashi 131, Oyoqog‘itma, Chorbaqti, Darbozaqir 1, 2, Tuzkon makonlari), Qizilqum (Lavlakan, Mingbuloq, Beshbuloq, Qoraqata) hududi Kaltaminor jamoalari paraqa va mikroparaqa qurollariga o‘z shakli, ishlov berilishi usullari bilan o‘xshash (Vinogradov 1981: 64–78).

Xulosa. 1. Sazog‘on-3 makoni tosh industriyasining o‘ziga xos xususiyatlari, moddiy manbalari, xususan, tosh qurollari, sopol idishlari hamda yodgorlik geologik joylanishi holati, stratigrafik ma’lumotlari, madaniy qatlami strukturaviy tuzilmalari jihatidan Sazog‘on madaniyati yodgorliklari jumlasiga kiradi.

2. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida Sazog‘on-3 makonini Sazog‘on madaniyati yodgorliklari xronologik jihatdan ketma-ketligi tizimida – ilk (mil.avv. VIII–VII–V ming yillik boshlari), o‘rta (mil.avv. V ming yillik boshlari – IVming yillik 1-yarmi) va so‘nggi (mil.avv. IV ming yillik o‘rtalari – III ming yillik boshlari) uning o‘rta bosqichiga tegishli deb hisoblash mumkin.

3. Sazog‘on-3 makoni tosh industriyasida Sazog‘on 1, Ochilg‘or makoni pastki madaniy qatlami, Chorbaqti mezolit yodgorliklari hamda Samarqand makoni moddiy madaniyatiga xos tosh qurollarini yasash texnologiyasi an’analarini kuzatish imkoni bo‘ldi. Bu tosh qurollarini tarixiy taraqqiyot bosqichlari borasida evalyutsiyasi hamda eng muhimi shu asosda genetik aloqalar bo‘lganligini bilishimizda ahamiyatlidir. Bu ma’lumotlar O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ri mezolit-neolit jamoalari madaniyati kelib chiqishi ildizlari vorisiylik asosida, avtoxton tarzda bo‘lganligi masalasini yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi.

4. Sazog‘on-3 makoni tadqiqotida qo‘lga kiritilgan arxeologik ashyolar, ma’lumotlar O‘rta Zarafshon vohasi neolit davri jamoalari moddiy-madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari, jamoalar turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, xo‘jalik mashg‘ulotlari, manaviy madaniyati, o‘zaro qo‘ni-qo‘shnichilik madaniy aloqalari, genezisi kabi masalalarni yoritishda birlamchi manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Виноградов А. В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. Т. 13. М.: Наука, 1981. 172 с.

Гулямов Я. Г., Исламов У. И., Аскаров А. А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. Ташкент: Фан, 1966. 252 с.

Джуракулов М. Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. Ташкент: Фан, 1987. 174 с.

Джуракулов М. Д., Холматов Н. У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. Ташкент: Фан, 1991. 123 с.

Исламов У. И. Обиширская культура. Ташкент: Фан, 1980. 148 с.

Лев Д. Н. Итоги работы археологического отряда Самаркандского госуниверситета имени А. Навои в 1966 году // Материалы по истории и археологии Узбекистана. Труды СамГУ. Вып. 218. Самарканд: изд. СамГУ, 1972. С. 3–67.

Марков Г. Е. Грот Дам-Дам-Чашма-2 в Восточном Прикаспии // Советская археология. №2. М.: Наука, 1966. С. 104–125.

Марков Г. Е. Памятники первобытности в Восточном Прикаспии – грот Дам-Дам-Чешме-1 // Вестник МГУ. Серия 8. История 3. М.: изд. МГУ, 1981. С. 41–55.

Окладников А. П. Древнейшие археологические памятники Красноводского полуострова // ТЮТАКЭ. Ашхабад: изд. АН ТССР, 1953. Т. 2. С. 73–104.

Окладников А. П. Пещера Джебел – памятник древней культуры прикаспийских племен // ТЮТАКЭ. Ашхабад: изд-во АН ТССР, 1956. Т. 7. С. 11–220.

Ранов В. А. Изучение памятников каменного века на Восточном Памире в 1958 г. // Археологические работы в Таджикистане. Вып. 6 (1958 г.). Душанбе: Даниш, 1961. С. 31–35.

Ранов В. А. Шугноу-многослойная палеолитическая стоянка в верховьях р. Яхсу //АРТ. Вып.10. М.: Наука, 1973. С. 42–61.

Ранов В. А., Коробкова Г. Ф. Туткаул многослойное поселение гиссарской культуры в Южном Таджикистане // СА, № 2. М.: Наука, 1971. С.133–147.

Холматов Н. Ў. Олмабулоқ макони (Ўрта Зарафшон воҳаси) // Тарих ва хотира (илмий мақолалар ва хотиралар тўплами). Самарқанд, 2007. 27–32б.

Холматов Н. Ў. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана. Ташкент: Фан, 2007. 203 с.

Холматов Н. Ў. Сазоғон маданияти ва унинг Ўзбекистон неолит даврида тутган ўрни. Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. 383 б.

REFERENCES:

Vinogradov A. V. 1981. *Drevnie okhotniki rybolovy Sredneaziatskogo mezhdurech'ya (Ancient hunters and fishermen of the Central Asian interfluve). In Trudy Khorezmskoj arkheologo-ehtnograficheskoj ehkspeditsii (Proceedings of the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition). Vol. XIII.* Moscow: Nauka Publ., 172. (In Russian).

Gulyamov Ya. G., Islamov U. I., Askarov A. A. 1966. *Pervobytnaya kul'tura i vozniknovenie oroshaemogo zemledeliya v nizov'yakh Zarafshana (Primitive culture and the emergence of irrigated agriculture in the lower reaches of the Zarafshan).* Tashkent: FAN Publ., 252. (In Russian).

Dzhurakulov M. D. 1987. *Samarkandskaya stoyanka i problemy verkhnego paleolita v Srednej Azii (Samarkand site and problems of the Upper Paleolithic in Central Asia).* Tashkent: FAN Publ., 174. (In Russian).

Dzhurakulov M. D., Kholmatov N. U.1981. *Mezolit i neolit Srednego Zarafshana (Mesolithic and Neolithic Middle Zarafshan)*. Tashkent: FAN Publ.,123 (In Russian).

Islamov U. I. 1980. *Obishirskaya kul'tura (Obyshchyra culture).* Tashkent: FAN Publ.,148 (In Russian).

Lev D. N. 1972. *Itogi raboty arkheologicheskogo otryada Samarkandskogo gosuniversiteta imeni A.Navoi v 1966 godu (The results of the work of the archaeological team of Samarkand State University named after A. Navoi in 1966).* In Materialy po istorii i arkheologii Uzbekistana. Trudy SamGU, Issue 218. Samarkand: Samarkand State University Publ., 3-67. (In Russian).

Markov G. E.1966. *Grot Dam-Dam-CHashma-2 v Vostochnom Prikaspii (Grotto Dam-Dam-Chashma-2 in the Eastern Caspian).* In Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology). No 2. Moscow: Nauka Publ., 104-125. (In Russian).

Markov G. E. 1981. *Pamyatniki pervobytnosti v Vostochnom Prikaspii - grot Dam-Dam-Cheshme-1 (Monuments of primitiveness in the Eastern Caspian Sea – grotto Dam-Dam-Cheshme-1).* In *Bulletin of the Moscow State University.* Seriya 8, Istoriya 3. Moscow: Moskva State University Publ., 41–55. (In Russian).

Okladnikov A. P. 1953. *Drevnejshie pamyatniki Krasnovodskogo poluostrova (The oldest monuments of the Krasnovodsk Peninsula). In Trudy Yuzhno-Turkmenistanskoj arkheologo-ehtnograficheskoj kompleksnoj ehkspeditsii (Proceedings of the South-Turkmenistan archaeological and ethnographic complex expedition).* T. 2. Ashkhabad: Akademiya nauk Turkmenistana Publ., 73–104. (In Russian).

Okladnikov A. P. 1956. *Peshhera Dzhebel – pamyatnik drevnej kul’tury prikaspijskikh plemen (Jebel cave – a monument of the ancient culture of the Caspian tribes).* In *Trudy Yuzhno-Turkmenistanskoj arkheologo-ehtnograficheskoj kompleksnoj ehkspeditsii (Proceedings of the South-Turkmenistan archaeological and ethnographic complex expedition).* T. 7. Ashkhabad: Akademiya nauk Turkmenistana Publ., 11–220. (In Russian).

Ranov V. A. 1961. *Izuchenie pamyatnikov kamennogo veka na Vostochnom Pamire v 1958 g (Study of Stone Age sites in the Eastern Pamirs in 1958)*. In *Arkheologicheskie raboty v Tadzhikistane (Archaeological work in Tajikistan).* Vol. 6 (1958 g.). Dushanbe, 31–35. (In Russian).

Ranov V. A. 1973. *Shugnou-mnogoslojnaya paleoliticheskaya stoyanka v verkhov’yakh r. Yakhsu (Shugnu is a multi-layer Paleolithic site in the upper reaches of the river. Yahsu)*. In *Arkheologicheskie raboty v Tadzhikistane (Archaeological work in Tajikistan).* Issue.10. Moscow: Nauka Publ., 42–61. (In Russian).

Ranov V. A., Korobkova G. F. 1971. *Tutkaul mnogoslojnoe poselenie gissarskoj kul’tury v Yuzhnom Tadzhikistane (Tutkaul is a multi-layered settlement of the Hissar culture in South Tajikistan)*. In *Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology).* No 2. Moscow: Nauka Publ., 133–147. (In Russian).

Kholmatov N. O’. 2007. *Olmabuloq makoni (O’rta Zarafshon vohasi) (Olmabulok area (Middle Zarafshan oasis).* In *Tarikh va khotira (ilmij maqolalar va khotiralar to’plami) (History and memories (a collection of scientific articles and memories).* Samarqand, 27–32. (In Uzbek).

Kholmatov N. . 2007. *Mezolit i neolit Nizhnego Zarafshana (Mesolithic and Neolithic of the Lower Zarafshan).* Tashkent: FAN Publ., 203. (In Uzbek).

Kholmatov N. O’. 2020. *Sazog’on madaniyati va uning O’zbekiston neolit davrida tutgan o’rni (Sazogon culture and its role in the Neolithic period of Uzbekistan).* Samarqand: Samarkand State University. Publ., 383. (In Uzbek).

SAZAGAN 3 IN THE SYSTEM OF SITES OF THE SAZAGAN CULTURE (CULTURAL PERIODIC, TYPOLOGICAL ANALYSIS, TECHNOLOGY)

© 2023. Kholmatova Zarifa
National Center of Archeology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Key words: Stone Age, Neolithic, Middle Zarafshan, Sazagan culture, Sazagan 3, «cultural oasis», stone industry, stone tools, cultural periodical (?), typological analysis, raw materials, technology.

The article highlights the tangible culture of the Sazagan 3 Neolithic site, located on the north slopes of the Karatepa ridge in the Middle Zarafshan oasis. Along with defining its specific features, special attention was paid to the typological analysis, manufacturing technologies, raw materials, and stone weaponry processing methods. Since 2017, the monument has been studied by N. U. Kholmatov. The studies resulted in the discovery of more than 100 stone artifacts and pottery fragments of considerable scientific interest. Based on these materials, the cultural and periodic affiliation of the monument was determined, but the specific features of the stone industry, typology of stone tools, production technologies, and raw materials processing methods remain unclear. The purpose of the article is to introduce the new data into scientific activities. A comparative analysis of stone items was carried out with reference to the Neolithic sites of Central Asia, especially the monuments of the Sazagan culture. Based on the typological analysis, taking into account the specifics of the stone industry, a type list was developed, and the information about the cultural and periodic characteristics of the Sazagan 3 monument was systematized. In this regard, based on the materials from the Sazagan 3 site, the following conclusions can be drawn: 1. The artifacts from Sazagan 3 site are attributable to Stone Age Neolithic communities; 2. The nature of the monumental stone industry, typological analysis of stone weapons, their manufacturing techniques, processing methods, and data on raw materials showed that the monument belongs to the Sazagan culture.